

ZAMONAVIY TA'LIMDAGI RAQAMLI MUAMMOLAR

BUGUNNING DOLZARB MAVZUSI

RAXIMOVA Sevara

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: gsevara1983@gmail.com

Tel:+998931072833

Annotatsiya: Globallashtirish jarayonida elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash dolzarblashmoqda.

Kalit so'zlar: IT-parklari, raqamli ta'lim, axborot xavfsizligi, raqamli resurslar.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim va innovatsion g'oyalarga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Shu jihatdan aytishimiz mumkinki ta'lim tizimida va boshqa sohalarda raqamli texnologiyalarning ahamiyati va o'rni muhimdir. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Har bir soha raqamli texnologiyalar bilan hamohang bo'lmasa, mamlakat rivojlanmaydi"[1]. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[2].

Bu mavzu ta'lim tizimining global miqyosdagi o'zgarishi, yangi imkoniyatlar yaratish va mavjud muammolarni hal etishda raqamli ta'limning rolini ko'rsatadi. Eng avvalo raqamli ta'limning joriy etilishi masalasidir. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli vositalarning joriy etilishi o'qitish va o'rganish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu yangi texnologiyalar yordamida o'quvchilar va talabalar onlayn kurslar, vebinarlar, virtual sinflar orqali bilim olish

imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shuningdek mobil ilovalar va interaktiv dasturlar yordamida o'qish jarayonini qulay va samarali uslublarda tashkil qilinayotganligi quvonarli albatta . Bundan tashqari ilmiy jamoa xalqaro miqyosda o'quv resurslariga ega bo'lishadi. Raqamli ta'lim tizimi o'qituvchilarga ham o'quvchilarni individual ravishda qo'llab-quvvatlash va ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'limni taqdim etish imkonini yaratadi.

Dunyo ta'lim tizimida tenglik va inklyuzivlikni tashkillashtirish, to'g'ri tashkil etish masalalariga bir qator yechimlar berilmoqda. Raqamli ta'lim barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyatlarni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, chekka hududlarda yashovchi yoki ta'lim olishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan o'quvchilar uchun onlayn ta'lim platformalari orqali samarali o'qish imkoniyatlari taqdim etiladi. Shu bilan birga, raqamli ta'lim har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlariga qarab, turli darajadagi materiallar va qo'llanmalar orqali inklyuziv ta'limni ta'minlaydi.

Axborot xavfsizligi va ma'lumotlarning himoyasi masalasi xam e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim jihatlardan biri. Raqamli ta'limning kengayishi bilan birga, o'quvchilar va o'qituvchilarning shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlash muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda. Ta'lim tizimida axborot xavfsizligi, maxfiylikni ta'minlash va huquqiy muammolarni bartaraf etish masalalari hal etilishi zarur. Shuningdek, raqamli resurslardan noto'g'ri foydalanish yoki zararli kontentlarga duch kelish kabi xavflardan himoya qilish muhim ahamiyatga ega.

Raqamli ta'lim tizimining samarali bo'lishi uchun o'qituvchilarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish kerak. O'qituvchilar raqamli ta'lim platformalarini qanday ishlatishni, o'quv materiallarini yaratishni va onlayn sinflarni qanday boshqarishni o'rganishlari lozim. Buning uchun o'qituvchilar uchun maxsus treninglar va seminarlar tashkil etilishi kerak. O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish o'quvchilarda bilim, malaka ko'nikmalarini shakllantirishda, zamonaviy bilimlarni egallashda ko'zlangan maqsadga erishish imkoniyatini beradi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari, masalan, sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR), robototexnika

va boshqa innovatsion usullar, ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bu texnologiyalar o'quvchilarga darslarni interaktiv tarzda o'rganishga, amaliy ko'nikmalarni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, ular ta'lim tizimini yanada shaffof va o'zgartiriladigan qilib beradi. O'qish va o'qitish metodlarining o'zgarishi raqamli ta'lim ta'lim metodologiyasida jiddiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Endi o'qituvchilar va o'quvchilar an'anaviy darsliklardan tashqari, onlayn kurslar, video darslar, interaktiv o'quv platformalari va boshqa turli xil raqamli materiallar bilan ta'minlanadi. Bu yangi metodlar o'quvchilarning qiziqishini oshirishga va ularning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Raqamli ta'lim global miqyosda ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. O'quvchilar boshqa mamlakatlardagi o'quvchilar bilan hamkorlik qilib, turli madaniyatlarni o'rganishlari, global tendentsiyalar va yangiliklardan xabardor bo'lishlari mumkin. Bu ta'lim tizimini global miqyosda integratsiyalashishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'limdagi raqamli muammolar raqamli ta'limning kengayishi bilan ancha sezilib bormoqda. Biz bugungi kunda Internetga kirish imkoniyatining cheklanganligi, ayniqsa, chekka hududlarda sezilarli ekanligini aytib o'tishimiz kerak. 2023-yil boshida O'zbekistonda 26,74 million internet foydalanuvchisi bo'lgan, o'shanda internetning kirish darajasi 76,6 foizni tashkil qilgan[3]. Statistika qo'mitasi 2023 yil 1-oktyabrda doimiy aholi soni 36.6 million kishidan iborat bo'lgan[4] deb qayd etganligi bois, 10 million aholi internetdan foydalanmasligini xulosa qilishimiz mumkin. Bundan tashqari foydalanuvchilarni raqamli texnologiyalardan noto'g'ri foydalanish kuzatiladi. Shuningdek raqamli tafovut, ya'ni ba'zi o'quvchilar raqamli resurslarga kirish imkoniyatiga ega bo'lmasligi xolatlarining mavjudligi xali xam saqlanib turibdi. Shu sababli, raqamli ta'lim tizimining barqaror va adolatli rivojlanishi uchun mavjud muammolarni bartaraf etishimiz xamda oqilona hal qilishimiz zarurdir. Shundagina kelajakda raqamli ta'lim yana ham rivojlanishi, o'quvchilarni tayyorlashda yangi texnologiyalar va metodlar joriy etishimiz esa yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin Shuningdek, ta'lim tizimida global miqyosdagi yutuqlarni ta'minlashimiz

va innovatsion yondoshuvlarni qo'llab quvvatlashda davom etsak albatta maqsadga erishamiz .

Umuman olganda, raqamli ta'lim – bu nafaqat zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi, balki uni yanada samarali va ta'sirli qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ta'limning rivojlanishi uchun raqamli texnologiyalarning rolini to'liq tushunish va undan samarali foydalanish muhimdir.

Axborot vositalari, jumladan, raqamli platformalar, bu qadriyatlarni yangi avlodga yetkazishda juda muhim rol o'ynaydi. Raqamli ta'lim orqali milliy qadriyatlar, til, tarix, san'at va madaniyatni o'rgatish osonlashadi. Shu bilan birga, bu vositalar orqali xalqaro miqyosda milliy qadriyatlarni targ'ib qilish ham mumkin. Axborot vositalarining ta'limga ta'siri xar doim muhim. Axborot vositalari, ayniqsa internet, ijtimoiy tarmoqlar va ta'lim platformalari, o'quvchilarga va talabalariga turli manbalardan bilim olish imkonini beradi. Biroq, bu vositalar bir vaqtning o'zida milliy qadriyatlarni qadrlashni saqlab qolish va globalashtirish jarayonlarida chuqur o'zgarishlar keltirib chiqaradi. Raqamli ta'limda milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish uchun maxsus dasturlar va materiallar yaratilishi kerak. Misol uchun, raqamli ta'lim platformalarida milliy tilni o'rgatish, folklor, adabiyot va san'atni yoritish, tarixiy shaxslarni targ'ib qilish kabi kontentlar yaratilishi lozim. Shu bilan birga, o'qituvchilar va ta'lim muassasalarining raqamli ta'limdan foydalanish ko'nikmalarini oshirish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda kelajakda raqamli ta'lim yanada rivojlanadi va o'zgaradi. Bunga qarab, milliy qadriyatlarni saqlash va ularga yangicha yondoshuvlarni yaratish zarur bo'ladi. Axborot texnologiyalarining kuchli vositalarini to'g'ri ishlatish, ta'lim jarayonlarida milliy qadriyatlar va global bilimlarni uyg'unlashtirish mumkin.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/20/it/>
2. Faqamli O'zbekiston—2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6079 Farmoni.
3. <https://datareportal.com/reports/digital-2023-uzbekistan>

4.<https://www.stat.uz/uz/59-foydali-ma-lumotlar/5859-o-zbekiston-aholisi-3>